

PEDAGOG FAOLIYATIDA ETIKET MASALASI

Hikmatova Gulandom,
Buxoro viloyat Buxoro tuman 6-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pedagog faoliyatida o'quvchilar bilan muloqot asosiy masala ekanligi, o'quvchilar ruhiyati bilan ish olib borish pedagog mahoratining bosh bo'g'ini hal qilinadi. O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda o'rganildi.

Kalit so'zlar. Pedagog etikasi, muloqot, zamonaviy metodika, o'quvchi ruhiyati.

ВОПРОС ЭТИКЕТА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Хикматова Гуландом,
учитель родного языка и литературы общеобразовательной школы № 6
Бухарского района Бухарской области

Аннотация. В данной статье рассматривается, что общение с учениками являющаяся основной задачей в педагогической деятельности, а работа с психикой учеников-важнейшее звено педагогического мастерства. Проблема формирования культуры общения профессиональной деятельности учителя изучается исходя из потребностей и требований человеческого общества.

Ключевые слова. Педагогическая этика, общение, современные методики, психика ученика.

ÖĞRETMECİ FAALİYETİNDE ETİKET SORUNU

Hikmatova Gulandom,
Buhara bölgesi Buhara ilçesi 6 No'lu genel eğitim okulu
ana dili ve edebiyat öğretmeni

Özet. Bu makalede,pedagojik faaliyette öğrencilerle iletişimin temel bir mesele olduğu ele alınmaktadır. Öğrencilerin ruh haliyle çalışmak, öğretmenlerinpedagojik becerisinin temel bir yönü olarak değerlendirilir Öğretmenin mesleki faaliyetinde iletişim kültürünü şekillendirme,bireysel toplumun ihtiyaç ve telerinden yola çıkılarak incelenmiştir.

Anahtar kelimeler. Pedagojik etik iletişim modern metodoloji, öğrenci ruh hali.

THE ISSUE OF ETIQUETTE IN PEDAGOGICAL ACTIVITY

Hikmatova Gulandom,
secondary school No. 6 of Bukhara District, Bukhara region
teacher of native language and literature

Annotation. This article examines the importance of communication between teachers and students in pedagogical activity. It is emphasized that working with the the students' psychology is essential in developing pedagogical skills. The issue of forming a culture of a teacher is analyzed , taking into account the needs and requirements of a humane society.

Keywords. Pedagogical etiquette, communication, modern methodology, student psychology.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 12-iyundagi

187-sonli buyrug'i 3 bobdan tashkil topgan bo'lib, unda barcha pedagoglarning salohiyatidan tashqari, gapirish muomalasi, yurish turishi haqida fikr yuritilgan. Qoidalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda — ta'lim muassasalari) faoliyat olib borayotgan pedagog-xodimlar mavqeining daxlsizligini e'tirof etish, inson va uning qadr-qimmatini, huquqlariga hurmatni oshirish, yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning oldini olish, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda keng jamoatchilikda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-xodimlarga nisbatan hurmat va ishonchni oshirishga qaratilgan. Qoidalar insonparvarlik, adolat, professionallik, mas'uliyat, bag'rikenglik, demokratiya, sheriklik va birdamlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Ta'lim muassasalarida shaffoflik, hamjihatlik, bag'rikenglik, o'zaro ishonch, izzat-hurmat, xavfsiz, do'stona muhitni yaratish pedagog-xodimlarning o'zaro munosabatlaridagi muhim shartlardan biri hisoblanadi. [1,4]

Maktabda faoliyat yuritish pedagoglar uchun o'ta og'ir jarayon hisoblanadi. Chunki aynan shu davrlarda o'quvchi dunyoqarashi shakllanadigan payt sanalanadi. O'quvchilarga tarbiya, yurish-turish, izlanish etikalarini bilimli, salohiyatli, zamon talablariga javob bera oladigan pedagoggina amalga oshirishi mumkin. Xo'sh, buni qanday amalga oshirsa bo'ladi? Albatta, etiket qoidalariga amal qilgan holda. O'qituvchi Dars jarayonida nafaqat qattiqqo'l ustoz, balki mehribon ona siymosida bo'lishi, bolalar ko'nglini topa olish qobiliyatiga ega bo'lishi o'ta muhimdir. Bundan tashqari, Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir. [2, 11]. Zero, biz o'qigan adabiyotlarda o'rganilgan nutqiy etiket, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya masalasi sifatida, inson shaxsiyatini namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga ko'ra ilmiylikka nisbatan ko'proq didaktik xarakterga ega hisoblanadi. Ularda pand-nasihat qilish, yo'l yo'riq ko'rsatish va asar maqsadiga ko'ra ham o'rganish emas, o'rgatish ustuvorligi seziladi. Bunday asarlar qatoriga Kaykovusning "Qobusnoma", Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Ahmad ugnakiyning "Hibbat ul haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul qulub", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Pandnomalar" kabilarni kiritish mumkin.[3,16] Demak, bu kabi tarixiy didaktik asarlarimizda ustozlarning naqadar donishmand ekanligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Misol uchun Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida O'gdulmish bilan Kuntug'di elikning koptok haqidagi, insonning to'rt fazilatlarini haqidagi fikrlar o'sha davrdagi ustoz-shogirdlik aloqalarini ko'rsatib bergan.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, avvalo o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir. Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Har bir vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jarayonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagog kadrlar shaxsiy faoliyatida kasbiy madaniyatni tarkib toptirish mutlaqo zarur ekanligi ta'kidlangan. Shaxsiy muomalada o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lishi kerak va shu bilan birga o'zida katta pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtirib boradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

muomala obyekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'sirni bilishi [3,2]

O'qituvchilarning nafaqat fikrlash qobiliyati, balki mimikasi ham metodikaning asosini tashkil etadi. Oddiygina ko'z-qarashlar ham o'quvchilarning darsdagi tartib-intizomini, fikrlashini, qat'iyatini belgilab berishi tabiiy, albatta. Juda ko'p ijodkor yozuvchilarning hayotiga e'tibor bersak, ularning ko'pchiligi "Birinchi muallim- onam", -deya ta'kidlashadi. Masalan, Oybek, Hamid Olimjon va boshqalar. Haqiqatdan ham, pedagogning harakatlari, muomalasi, yurish turishi umuman olganda, mimikalari farzand uchun ona xarakterlarini ko'rsata oladi. O'qituvchida ona siymosining gavdalanishi o'quvchilar uchun butun borliq desak, adashmaymiz.

Muloqot, odob-axloq qoidalari pedagog uchun odatiy holdir va etiket qoidalariga rioya qilish, bu tartibga solishni shu bilan bir qatorda ma'lum bir jamiyat vakillarining kommunikativ xatti-harakatlarining an'anaviyligi tartibga soluvchi, albatta pedagog hisoblanadi. An'anaviylik nutqning qabul qilingan me'yorlariga qat'iy, majburiy rioya qilish, nutq odob-axloqi normalaridan foydalanish bilan bog'liq nutq xatti-harakatlarini standartlashtirishni nazarda tutadi. Umuman olganda, mana shunday etiket vazifalarini to'lig'icha angalagan pedagog jamiyat taraqqiyoti uchun natija ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil "12" iyundagi 187-sonli buyrug'iga 1-ILOVA.
2. <http://ijournal.uz/398> O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi Tolipova Ozoda Ikromovna Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi;
3. Кахаров Қ.Ш. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи фил. фан. бўйича фалсафа доктори (Phd) Диссертация, Андижон – 2020, 16-б.